

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

## **QURILISH KORXONALARI VA TARMOQLARIGA INVESTITSIYALARINI JALB ETISHNING ZARURLIGI VA AHAMIYATI**

Zikrullaev Valixon G'aybullayev o'g'li

Toshkent arxitektura-qurilish instituti magistranti

i.f.n., prof. Davletov Islombek Xaliquovich

### **Annotatsiya**

Qurilish – bu boshqa ishlab chiqarish faoliyati turlaridan ajratib turadigan bir qator xarakterli xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar qurilish mahsulotlari va qurilishda ishlab chiqarish jarayoniga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar bilan bog'liq. Ushbu maqolada qurilish korxonalari va tarmoqlariga investitsiyalarini jalg etishning zarurligi va ahamiyati, respublikamizdagi qurilish sohasidagi olib borilayotgan islohotlar, ularga ajratilayotgan investitsiyalar, loyihamalar, sohaning jadal rivoji haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, loyiha, sarmoya, statistika, uy-joy, qurilish korxonalari, o'sish.

Mamlakatimizda bugungi kunda qurilish sohasida investitsion muhitni yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan investitsiya loyihamalari, asosan, import qilinayotgan qurilish mahsulotlarining o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, shuning bilan birgalikda, ichki bozorni, mahalliy xomashyolarga tayanilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirishga qaratilmoqda.

Investitsiya loyihamalari amalga oshirish va qurilish korxonalarini moliyalashtirish, ularning texnik iqtisodiy asoslanishi va ekspertizasi, loyihamalarning samaradorligini baholash va monitoringi kabi bir qator yangi ko'plab tushuncha va iqtisodiy bilimlarni kashf etishi ularning bugungi iqtisodiy hayotimizda naqadar muhimligini anglab olishimizga sabab bo'lmoqda.

Bu esa respublikamizda qurilish sohasining va milliy ishlab chiqarishning yanada rivojlanishi, iqtisodiy faol mulkdorlar sinfining tobora shakllanib borishi, ishbilarmonlik, tadbirkorlikning, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiy topishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan holda ular istiqboli uchun ham o'z ijobjiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bu holat, eng avvalo, mamlakatda mazkur yo'nalishda davlat tomonidan maqsadli, faol va samarali investitsiya siyosatining yuritilishi, investitsiya jarayonlarining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarning yaratib berilayotganligi hamda uni tartibga solish va

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

qo‘llab-quvvatlashning ta’sirchan mexanizmi ishlab chiqilganligi bilan uzviy bog‘liqdir.

Ushbu sa’y-harakatlar natijasida 2022-yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 50,1 trln. so‘m o‘zlashtirildi. Dollar ekvivalentida 4,6 mlrd. AQSH doll. o‘zlashtirilgan bo‘lib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 126,3 % ni tashkil etdi. Keyingi yillarda Respublikada keng ko‘lamli qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni, xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o‘zlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalastirilgan 8,0 trln. so‘m investitsiyalar, yoki 2021- yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga ko‘paygan holda jami investitsiyalardagi ulushi 15,9 % ga teng investitsiyalar o‘zlashtirildi<sup>1</sup>.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlarini moliyalashtirish manbalari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kuzatilib, o‘tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 2,2 martaga ko‘paydi.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 13,6 trln. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilib, jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,5 % punktga ko‘payib, 27,3 % ni tashkil etdi (1-jadval).

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda, yangi texnologiyalar joriy etilmoqda, yangi turdagи tovarlar va xizmatlar paydo bo‘lib, bu tovarlar va xizmatlar sifatini yanada oshirish, pirovardida aholining hayot sifatini oshirish, milliy iqtisodiyotda raqobatni kuchaytirish uchun zamin yaratadi.

1-jadval



## Qurilishga ajratilayotgan investitsiyalar va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari tarkibi<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Akromov E.A., Korxona iqtisodiyoti – T.: “Moliya”. 2009-yil, 39-bet.

<sup>2</sup> <https://www.stat.uz/> O‘zbekiston Davlat Statistika qo’mitasi

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)


Korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan investitsiyalar bo‘yicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 60,5 % ini tashkil etdi. Shuningdek, Jizzax viloyatida 41,7 % va Toshkent viloyatida 39,9 % ni tashkil etdi.

O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan.

Zamonaviy qurilish industriyasi – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng ko‘zga ko‘ringan milliy tarmoqlaridan biri bo‘lib, yillik barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etib kelmoqda.

2022-yil yanvar-mart oylarida korxona va tashkilotlarning kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyaga investitsiyalar ulushi bo‘yicha yuqori natijalar Andijon viloyatida – 58,6 % (1803,3 mlrd. so‘m), Qashqadaryo viloyati – 35,8 % (1314,2 mlrd. so‘m), Surxondaryo viloyati – 31,5 % (769,9 mlrd. so‘m), Namangan viloyati – 31,0 % (857,9 mlrd. so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 29,7 % (483,5 mlrd. so‘m) va Navoiy viloyatida – 28,5 % ga tengligi (986,7 mlrd. so‘m) kuzatildi.(2-jadval)

## 2-jadval



**Hududlar bo‘yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da<sup>3</sup>**

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydag‘i yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

<sup>3</sup> <https://www.stat.uz/> O‘zbekiston Davlat Statistika qo‘mitasi

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.


[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

- binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 56,8 % ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021-yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 10,8 % ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021-yilning mos davriga nisbatan 117,4 % ga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 32,4 % ulushni va 104,1 % o‘sish sur’atini tashkil etdi.

Hozirgi kunda Respublikamizda qurilish ishlari jadal rivojlayotgan bo’lsada, aholiga uy-joy bilan ta’minalash masalasi siyosat darajasiga ko’tarilgan.

2022-yilning yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 2 812,3 ming kv.m turar joy ishga tushirilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ni tashkil etildi (3-jadval).

## 3-jadval



## Ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi<sup>4</sup>

Ulardan 97,4 % i yoki 2 738,8 ming kv.m turar joylar yakka tartibda qurilgan bo‘lib, 66,0 ming kv.m yoki 2,3 % i namunaviy loyihalar asosida qurilgan turar joylar, 7,5 ming kv.m yoki 0,3 % boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishga tushirilgan turar joylarni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-mart oylarida turar joy qurilishida jami 3942,5 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilib, respublika budjeti mablag‘lari hisobidan 54,9 mlrd. so‘m, korxona va tashkilotning o‘z mablag‘lari hisobidan 44,0 mlrd. so‘m, aholi mablag‘lari hisobidan 3271,9 mlrd. so‘m va boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan 5 71,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

<sup>4</sup> <https://www.stat.uz/> O‘zbekiston Davlat Statistika qo’mitasi


# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

2022-yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida jami 24 071,6 mld. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021-yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllandi (4-jadval)

**4-jadval**



## **Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari, jamiga nisbatan % da<sup>5</sup>**

Fikrimiz yakunida aytishimiz mumkinki, milliy iqtisodiyotimizning rivojlanishida qurilish korxonalarining o‘rni va zarurligi kiritilgan yangi investitsiyalar va mavjud moddiy-texnika asosini modernizatsiya qilishdan tashqari, ulardagagi iqtisodiy salohiyatni oshirish, boshqaruvning demokratik tamoyillarini kuchaytirish, korxona, firma va ularga tenglashtirilgan ishlab chiqarish tuzilmalarining xo‘jalik faoliyatini bilan bog’liq mustaqillik doirasini kengaytirish, siyosatning iqtisodiyotdan ustunligiga barham berish, inson faoliyatining barcha soha va tarmoqlarida tashabbuskorlik, izlanishlarga imkon beradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Akromov E.A., Korxona iqtisodiyoti – T.: “Moliya”. 2009-yil, 39-bet.
2. Matyoqubov A.D. Qurilish materiallari sanoatiga investitsiyalarni jalb etishning boshqarish samaradorligini oshirish – Toshkent, 2019-yil, 180 bet.
3. <https://www.stat.uz/> O‘zbekiston Davlat Statistika qo’mitasi

<sup>5</sup> <https://www.stat.uz/> O‘zbekiston Davlat Statistika qo’mitasi